

NASIROVA Malika

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi,
O'zbek tili va mumtoz sharq adabiyoti
kafedrası mudiri
filologiya fanlari nomzodi, dotsent
m.nasirova@iia.uz*

ARAB TILSHUNOSLIGI TARIXI: KUFA GRAMMATIKA MAKTABI

ИСТОРИЯ АРАБСКОГО ЯЗЫКОЗНАНИЯ: ГРАММАТИЧЕСКАЯ ШКОЛА КУФЫ

HISTORY OF ARABIC LINGUISTICS: KUFA GRAMMAR SCHOOL

Annotasiya: Mazkur maqola arab tilshunosligi maktablarning dastlabkilaridan biri bo'lgan Kufa maktabi va uning vakillari, ular yozib qoldirgan bebaho ilmiy meros haqida ma'lumot beradi. Unda Kufa maktabining paydo bo'lishi, vakillari, ularning asarlari mo'tabar manbalarga tayangan holda batafsil bayon qilingan. Abu Ja'far ar-Ru'asiydan boshlanib as-Sa'labgacha davom etgan ushbu maktab tilshunoslarining faoliyati, ustoz-shogirlik an'analari aks etgan.

Tayanch so'z va iboralar: Kufa shahri, nahv va sarf ilmi, aruz, Kisoiy, as-Sa'lab, nahv maktabi.

Аннотация: В данной статье представлены сведения о первой школе арабского языкознания – Куфийской школе и ее представителях, а также о бесценном научном наследии, которое они оставили после себя. Подробно рассказывается о появлении Куфийской школы, ее представителей и их работах на основании достоверных источников. Деятельность языковедов этой школы, начавшаяся от Абу Джа'фара ар-Руаси и продолженная до ас-Са'лаба, нашла свое отражение в традициях наставничества и ученичества.

Ключевые слова: город Куфа, морфология и синтаксис, аруз, Кисаи, ас-Са'лаб, школа грамматики.

Annotation: This article provides information about the first school of Arabic linguistics, the Kufa school and its representatives, as well as about the invaluable scientific heritage that they left behind. It tells in detail about the emergence of the Kufa school, its representatives and their work on the basis of reliable sources. The activity of the linguists of this school, which

began from Abu Ja'far ar-Ruasi and continued until al-Sa'lab, was reflected in the traditions of mentorship and apprenticeship.

Keywords: city of Kufa, morphology and syntax, aruz, Kisoiy, as-Sa'lab, school of grammar.

KIRISH

Basra maktabi [8, 55-60] bilan deyarli bir paytda, undan sal keyinroq boshqa yo'nalishdagi arab tilshunosligi maktabiga Kufa shahrida asos solindi. Bu shahar ham xuddi Basra kabi Iroq shaharlaridan biri bo'lib, u Sa'd ibn Abi Vaqqos tomonidan hijratning 16-17 yillari bunyod etilgan edi. Kufa yangi fath etilgan muhofaza markazi bo'lib, arablarning siyosiy va madaniy hayotida muhim rol o'ynar edi. Hijriy 4-asrning boshlarida Kufa Iroqning katta madaniyat markaziga aylandi. Kufa ko'p millatli shahar bo'lib, unda: forslar, suryoniyalar, nabotiyalar, Najroniyya qabilasi istiqomat qilishardi.

Milodiy 638-yil asos solingan Kufa shahri Basraga yaqin bo'lganligi sababli unda ham fanning turli sohalarida, jumladan, arab tilshunosligi borasida samarali izlanishlar olib borishga qulay sharoit yaratgan edi. Shu kundan boshlab nahv sohasida ikki yo'nalish – Basra va Kufa nahv maktablari yuzaga keldi. Bu haqida Xanna Faxuriy shunday deydi: «Arab tilining qonun-qoidalar va uning grammatik ahvoli Abu-l-Asvad Dualiy tomonidan ishlab chiqilgan bo'lsada, Abbosiylar davrining boshlaridayoq arab tilining nahv qoidalar Basra va Kufa shaharlari o'rtasida bahsmunozara mavzusiga aylangan edi. Ularning har biri o'z grammatik maktabiga, o'z nuqtai nazariga va qonun-qoidalariga ega».

Hijratning 2-asriga kelib o'sha davrning madaniy markazlaridan bo'lgan Kufa shahrida ham Qur'on, hadis, fiqh, fatvo rivoyatlari, she'rlar va axbor rivoyatlari jamlana boshlandi. Kufa ahli Qur'on qiroati, hadis, fiqh, fatvo ilmlari bilan bir qatorda she'rlarni naql (rivoyat) qilish va adabiyot sohalarida ham shuhrat qozondilar. Shuning bilan birga nahv ilmi o'rganila boshlandi va bu sohada bir qancha kufalik olimlar yetishib chiqdi. (Ruasiy, Kisoiy, Farro va boshqalar). Kufa nahvchilari dastlab Ruasiy, keyinchalik uning shogirdi Kisoiy boshchiligida o'z to'garaklari – maktablarini shakllantirdilar va bu to'garak «Grammatikada Kufa maktabi» nomi bilan mashhur bo'ldi.

Kufa grammatika maktabi haqida gapirganda shuni alohida ta'kidlash joizki, kufalik tilshunoslar nahvgga oid ilmlarni basraliklardan o'rgangan.

Ruasiyning tog'asi Muoz ibn Muslim al-Harro ham bu ilmni basralik nahvshunoslardan tahsil olib, keyinchalik ular bilan tortishishgan.

ASOSIY QISM

Kufa tilshunoslik maktabining tashkil topishi Ali ibn Hamza va uning shogirdi Yahyo ibn Ziyod al-Farrolarning nomlari bilan bog'liqdir. Basralik Al-Axfash al-Avsat kufaliklar tarafiga o'tib, ularga yon bosgan va o'zining ikki ustozlari Al-Xalil ibn Ahmad va Sibavayhilarining tilga oid ba'zi fikrlariga qilgan ixtiloflari bilan Kufa maktabining shakllanishiga turtki bo'lgan. Kufa tilshunoslik maktabi ham bir necha tabaqalarga bo'lib o'rganiladi. Kufa maktabining asoschisi Kisoiy bo'lishiga qaramasdan, u ikkinchi tabaqadan o'rin oladi. Sababi, Kisoiy Kufada Harro va Ruasiydan o'z bo'lsada tahsil olgan. Shuning uchun ular Kufa maktabining birinchi tabaqasidan joy oladi.

1-tabqa vakillari. Muoz al-Harro- معاذ الهراء. Abu Muslim Muoz ibn Muslim al-Harro Muhammad ibn Ka'b Qaraziyning qullaridan bo'lgan. Kufada yashab ijod etgan. Akasining o'g'li Ruasiy bilan birgalikda nahv ilmi bilan shug'ullangan. Abdulmalik ibn Marvonning farzandlariga mudarrislik qilgan. Uning «Al-Harro» deb nom olishiga sabab, u Hironing kiyimlarini sotar edi. Hiro – bu Xurosondagi shaharlardan biridir¹. U arab tili grammatikasiga oid biror bir asar yozmagan va hatto uning grammatik nazariy qarashlari haqida ham hech qanday ma'lumot yetib kelmagan. Biroq Harroni ba'zilar sarf ilmining asoschisi deyishgan.

Rivoyatlarga ko'ra Harro juda uzoq umr ko'rgan. Uning farzandlari, nabiralari dunyoga kelib, yashab, vafot etib ketishganda ham u hayot bo'lgan. Harro 150 yil umr ko'rib, 187/803 yili Kufada vafot etgan [9].

Ruasiy - الرواسي Abu Ja'far Muhammad ibn al-Hasan boshi kattaligi uchun ham «Ar-Ruasiy» (katta boshli, boshi katta) degan laqab olgan. Kufada yashab ijod etgan. Suyutiyning guvohlik berishicha, kufaliklardan birinchi bo'lib nahvga oid asar yozgan odam Abu Ja'far Ruasiy ekan. Basraga borib Iso ibn Umar va Abu Amr ibn al-Alolardan tahsil olib yana Kufaga qaytib kelgan va u yerda amakisi Muoz ar-Harro bilan birgalikda nahv ilmi bilan shug'ullangan. Kufaga qaytib kelib Kufa tilshunoslik maktabiga asos solgan. Kisoiy, Farro

va boshqalarga ustozlik qilgan. Sa'labning zikr qilishicha, u nahvga oid «al-Faysal» nomli kitob yozgan bo'lib, bu kitob Kufa maktabi tarixidagi birinchi tasnif qilingan kitob bo'lgan. Uning asarlari:

1. معانى القرآن
2. الأبتداء الكبير.
3. التصغير
4. الأبتداء الصغير
5. الفیصل
6. الجمع و الأفراد
7. الوقف و الأبتداء va boshqalar (13,2003)

Zubaydiy o'zining «Tabaqot»ida: «Abu Ja'far Ruasiy kufaliklarning nahv bo'yicha ustozlari edi. Uning birlik va ko'plik sonlari haqida asari bo'lgan», – deb keltiradi. Ruasiy xalifa Horun ar-Rashid davrida 187/803 y. Kufada vafot etgan. [12, 112]. Lekin uning tug'ilgan yili haqidagi ma'lumotni uchratmadik.

2-tabqa vakili – Abu-l-Hasan Ali ibn Hamza Kisoiy – Kufa grammatika maktabining yo'l boshchilaridan biri bo'lgan. U 119/737 y. Kufada tavallud topgan. Undan nega «Kisoiy» deb nom olganligi haqida so'rashganida u, – «chunki men hajda kisoda (kiyimda) ehrom bog'laganman», – deb javob bergan ekan. U asli fors bo'lib, Bani Asad qabilasining qullaridan edi. Muoz al-Harro va Abu Ja'far Ruasiylarda nahvdan tahsil oldi. Ulardagi ilmlarni olib bo'lib, ulardan qoniqmay qolgach, Basraga kelib Iso ibn Umar, Abu Amr ibn al-Alo va Al-Xalil ibn Ahmaddan ilm o'rgangan. Asarlari:

1. فى النحو كتاب مختصر
2. كتاب الحدود فى النحو
3. كتاب القراءات
4. كتاب العدد
5. معانى القرآن
6. كتاب النواذر الكبير
7. كتاب النواذر الصغير va boshqalar (13,2003)

Ibn Qiftiy «Inbah ar – ruvvot» asarida Kisoiyning Nadj, Tuxoma va Xijozga safar qilganligini va shu safari davomida yodda saqlab qolganlaridan tashqari arablardan eshitganlarini yozib olish uchun 15 shishadagi siyohni sarflaganligini aytadi. U badaviylar orasida uzoq muddat yashagan, «Xalq tilidagi xatolar haqida ba'zi mulohazalar» asarini yaratib, klassik arab tili bilan turli lahjalar orasidagi farqlarni tushuntirib bergan. Kisoiy faqat nahv bilimdoni bo'libgina qolmay, mashhur qori ham edi. Ibn Haririyning «An-nashr fi qiroat al-ashr» kitobida yozilishicha, Kisoiy yig'inlarda bir kursiga o'tirib Qur'oni

¹ أبو بكر محمد بن حسن الزبيدي الأندلسي. طبقات النحويين واللغويين. دار المعارف. مصر. القاهرة – 1392 هـ 1973 م الصفحة 125

karimni boshidan oxirigacha tilovat qilar ekan. Majlis ahli esa uni tinglab oyatlardagi to'xtalishlarni belgilab borar ekan. Ali ibn Hamza Kisoiy 189/805 yil Ray shahri yaqinidagi Ranbuvayh nomli kichik shaharchada vafot etgan va o'sha erga dafn etilgan [13, 756].

3-tabaqa vakillari: Abu-l-Hasan Ali ibn al-Hasan – «Al-Ahmar- الأحمر» nomi bilan tanilgan. U Horun ar-Rashid eshigida navbatchi qo'riqchi bo'lib ishlar edi. Shuning bilan birga u arab tilini juda sevardi. Kisoiydan faqat navbatchiligidan tashqari kunlaridagina tahsil olar edi. Kisoiy maxov kasaliga duchor bo'lgach, Al-Ahmar xalifaning farzandlariga mudarrislik qilgan, ya'ni ilm berish bilan shug'ullangan. Sa'labning aytishicha: «Al-Ahmar nahvga oid 40 mingta dalil va she'rlarni yod bilar edi». Al-Ahmar «مقاييس التصريف» va «تفنن البلغاء» nomli asarlar yozib qoldirgan. Abu-l-Hasan al-Ahmar 194/809 yili haj qilish uchun ketayotganda, yo'lda vafot etgan. [12, 112]

Al-Farro الفراء - Abu Zakariyo Yahyo ibn Ziyod Abdulloh ibn Marvon Daylamiy Bani Asad qabilasining quli bo'lgan. Asli fors bo'lgan Al-Farro 144/761 y. Kufada tavallud topgan. Uning «Al-Farro» deb atalishining sababi, suhbatdoshining gapini bo'laverar edi. Suyutiyning yozishicha, Farro Kiso-iydan keyin kufaliklarning eng bilimdoni bo'lgan. Kisoiy va Yunusdan ta'lim olgan. U she'riyat, tabobat, falsafa, tafsir, qiroat va nahv ilm-larini yaxshi bilgan. Odamlar u haqida «Al-Farro nahvda amir al-mo'minindir», – deyishardi. Al-Farro ko'pgina sohalarga oid 30ga yaqin asarlar yozib qoldirgan bo'lib, ularning nahvga tegishli bo'lgan ba'zilarini keltirib o'tamiz.

1. الحدود في النحو
2. المذكر والمؤنث
3. الجمع والتثنية في القرآن الكريم
4. لغات القرآن، فعل وأفعال
5. مشكل الإعراب
6. كتاب الكبير في النحو
7. المختصر في النحو
8. المقصور والمحدود
9. الجمع واللغات
10. الكافي النحو
11. معاني القرآن
12. كتاب الواو va boshqalar [13, 756].

Al-Farro yozgan asarlarning ba'zilar davrimizga qadar yetib kelgan va nashr qilingan. Ularning ichida eng mashhuri «Maoniy al-Qur'on» bo'lib, u Qur'on bilimlarini o'z ichiga olgan keng qamrovli asardir. Unda Al-Farro tilning nahv, sarf, balog'at va i'jozga bog'liq xususiyatlarini

bayon qiladi. «Maoniy al-Qur'on» asari Kufa maktabining nahvga oid qarashlarini o'rganishda asosiy qo'llanmalardan bo'lib xizmat qiladi. Al-Farro xalifa Ma'mun davrida 207/822 yil 63 yoshida Makka yo'lida vafot etgan.

Hishom ad-Darir – Abu Abdulloh Hishom ibn Muoviya ad-Darir Kisoiy-ning Farrodan keyingi mashhur shogirdlaridan bo'lgan. Xalifa Ma'mun davrida yashab ijod etgan. Uning hayoti haqida kitoblarda juda kam ma'lumot keltirilgan. Hishom ad-Darir nahvga oid uchta asar yozib qoldirgan: «الحدود», «المختصر», «القياس». Hishom ibn Muoviya 209/824 yili vafot etgan.

4-tabaqa vakillari: Ibn Sa'don – Abu Ja'far Muhammad ibn Sa'don ad-Darir 161/777 yil Bag'dodda tug'ilgan va Kufada unib o'sgan. Abdulloh ibn Idris va Abu Muoviya ad-Darirdan tahsil olgan. Hamza ibn Habib qiroati bo'yicha Qur'on o'qib, butun ommaga qiroat ilmidan dars berar edi. Bu nahvshunos haqida ham ma'lumotlar juda kam. Suyutiyning yozishicha, u arab tili ilmlari yaxshi egallagan kishi bo'lgan. Nahvga oid bitta va qiroat ilmiga oid bitta asar yozgan. Ibn Sa'don hijriy 231/845 yil qurbon hayiti kuni olamdan ko'z yumgan. [12, 112]

Muhammad ibn Qodim – Abu Ja'far Muhammad ibn Abdulloh ibn Qodim nahv ilmini Farrodan o'rgangan. Undan esa Sa'lab tahsil olgan. Saiyd ibn Qutayba Bohiliyning o'g'liga mudarrislik qilgan. Nahv ilmiga oid «الكافي» va «المختصر», shuningdek hadis ilmiga taalluqli «غريب الحديث» nomli asarlar yozgan. Muhammad ibn Qodim 251/865 yili olamdan o'tgan. [13, 756]

5-tabaqa vakillari – Sa'lab- ثعلب. To'liq ismi Abu-l-Abbos Ahmad ibn Yahyo ibn Yazid bo'lib, «Sa'lab» ismi bilan tanilgan. Otasi Yahyo ibn Yazid Bani Shaybon qabilasining quli bo'lgan. Uning asli fors bo'lganligi taxmin qilinadi.

As-Sa'lab 200/815 yil Bag'dodda tug'ilib, shu yerda unib o'sdi. U to'qqiz yoshligida ulamolarning davralariga qatnay boshladi. Nahv ilmini Salamadan va arab tilini Ibnu-l-A'robiydan o'rgandi. Basra va Kufa tilshunoslari o'rtasidagi munozaralar avjiga chiqqan paytda Kisoiy va Al-Farrolarning maktabida ta'lim berish endi Sa'labning zimmasida edi. Bu vaqtda Kufa maktabiga as-Sa'lab boshchilik qilgan bo'lsa, Basra maktabini Mubarrid boshqarar edi.

As-Sa'lab arab tili va nahvi, qiroat ilmi hamda boshqa sohalarga oid bir qancha asarlar yozgan bo'lib, ularning aksariyati yo'qolib ketgan. As-Sa'labning «مجالس الثعلب», «الفصيح», «قواعد الشعر»

», shuningdek maxsus nahvga oid «احتلاف النحويين» kabi asarlar keyingi avlodlarga yetib kelgan. As-Sa'lab 26001/19 yili bu olamdan ko'z yumgan [12].

Kufa maktabi tarixida as-Sa'labdan keyin uning shogirdlari maydonga chiqadi. Shujumladan, uning shogirdi Abu Muso al-Homid Kufa maktabini boshqaradi. Shuningdek, uning Abu Amr az-Zohid va Abu Bakr ibn Muqsim kabi izdoshlari ham arab tili, nahvi va sarfi, Qur'on ilmlarida o'zlarining salohiyatlarini namoyon etib, bir qancha asarlar bitishgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Abu-l-Abbos Ahmad ibn Yahyo ibn Yazid as-Sa'lab bilan Kufa maktabi vakillarining tabaqalari o'z intihosiga yetadi.

Kufa tilshunoslari arab tilining lug'at tarkibi va grammatik qurilishini o'rganib shu yo'l bilan u tilning grammatikasini yaratishda o'zlarining salmoqli xissalarini qo'shganlar. Ularning arab tilining lug'at tarkibi to'g'risida jamlagan ma'lumotlari va tuzgan til qoidalarini xuddi Basra tilshunoslariniki kabi keyingi asrlardagi tilshunoslar uchun asosiy qo'llanmalardan bo'lib xizmat qilgan. Kufa maktabi namoyandalari arab adabiy tili normalariga erkin qarashar, ya'ni qat'iy belgilangan tartibdan chetga chiqish mumkin deb hisoblashardi. Shuning uchun ularni analitiklar – «as-sima'iyun» deb atashar edi. «Islom falsafasi tarixi» kitobida de Bur shunday deydi: «Basra tilshunoslari o'zlarining nahvga taalluqli xulosalarida qiyosni yuqori o'ringa qo'yar edilar. Kufa tilshunoslari qiyosga to'g'ri kelmaydigan ko'p qoidalarini iste'mol qilishga ruxsat berar edilar». Kufaliklar esa arablardan eshitgan naqlni hurmat qilganlar, har qanday naql ular uchun maqbul va unga qiyoslash mumkin. Kufaliklar basraliklar kabi she'r rivoyat qilishda ba'zi arab qabilalarini cheklab qo'ymagan, balki ham cho'lda, ham shaharda yashovchi barcha arab qabilalaridan olganlar.

Basra tilshunoslik maktabidan qariyb bir asrdan keyin yuzaga kelgan Kufa maktabi ham arab tilshunosligining rivojida o'zining salmoqli hissasini qo'shdi. Ayniqsa ularning nahv ilmidagi basraliklar bilan qilgan ixtilofli munozaralari arab tilshunosligining tez sur'atda takomiliga yetishishida muhim o'rin tutadi. Ikki maktab bir necha yillar davomida ko'pgina mavzularda munozarali tortishuvlar olib borib, oxir-oqibat o'rtalarida ixtilofli masalalar ham tugab qoldi.

Keyinchalik, ilm va madaniyat markazi Iroqning yana bir taraqqiyot (madaniyat) markazi bo'lmish Bag'dodga ko'chdi. Endi har sohadagi olimlar, jumladan, nahvshunoslar ham Bag'dod tomon intila boshladilar va ularning sa'yi harakatlarining natijasi Bag'dod grammatika maktabining yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.

ADABIYOTLAR

1. Абдуллоҳ Абдулҳамид Саад. (2007) Ўрта Осиё олимлари қомуси – Т.: Имом Бухорий республика илмий-маърифий маркази, 2007. – 960 б.
2. Akmalxonov A. (2019) Abu Yakub Sakkaki's views on the role of the source letters in words in Arabic. International Journal of Research 2019 (March), – B. 353-359.
3. Гиргас В. (1873). Очеркъ грамматической системы арабовъ. – СПб. – 203 с.
4. Nasirova M. (2019). Scientific heritage of Makhmud Zamakhshari and actual questions of the studies of Mavarennakhr's linguistic school. The Light of Islam: Vol. 2019: Iss.1, Article15. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/jiau/vol2019/iss1/15>.
5. Nasirova M. (2019). The contribution of the outstanding Mavarannahrian scholar Mahmud az-Zamakhshari into the world linguistics. International Scientific Journal. Theoretical and Applied Science. Clarivate Analytics. Philadelphia, USA 2019.(10), 755-759.
6. Nasirova M. (2019) Тилшунослик билимлари тарихи. Дарслик. – Т.: NAVRO'Z. 232-6.
7. Nasirova, Malika (2020). Semantic classification of auxiliary verbs in Arabic Language. The Light of Islam: Vol.2020:Iss. 3, Article 15. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/jiau/vol2020/iss3/15>.
8. Nasirova, Malika (2022). History of Arabic linguistics: Basra Grammar School. Islom tafakkuri. 2022.4-son maxsus. – B.55-60.
1. المختار احمد ديرة. دراسة في النحو الكوفي. – دمشق. ١٩٩١ ص.
2. أبو بكر محمد بن حسن الزبيدي الأندلسي. طبقات النحويين واللغويين. دار المعارف. مصر. القاهرة - ٣٧٩١م - ٢٩٣١هـ الصفحة ٥٢١
3. مصر. - ٢١٠٢ محمود الزمخشري المفصل في صناعة الاعراب
4. محمد الطنطاوي. نشأة النحو وتاريخ أشهر النحاة. دار المعارف. الطبعة الثالثة. القاهرة. ٥٠٠٢ ص ٢١١
5. صلاح رؤاي. النحو العربي نشأته، تطوره، مدارس، رجاله. دار الغريب للطباعة والنشر والتوزيع. القاهرة ٣٠٠٢. ص ٦٥٧

ИНТЕРНЕТ САЙТЛАР:

9. www.arabdict.com
10. www.drmosad.com
11. www.al-ahram.org
12. www.al-axbar.org